SOTSIOLOGIYA FANINING ASOSIY YOʻNALISHLARI

Quvondiqova A.U.
Mirzo Ulug'bek nomidagi Oʻzbeiston Milliy Universiteti
3-bosqich talabasi
azizabonuquvondiqova7@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.15528179

Annotatsiya. Sotsiologiya zamonaviy jamiyatni tushunish, uni tahlil qilish va ijtimoiy muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar taklif qilishda asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida jamiyatda yuz berayotgan oʻzgarishlar, ijtimoiy guruhlar oʻrtasidagi murakkab munosabatlar, migratsiya, gender tengligi, ijtimoiy tengsizlik kabi masalalarni chuqur anglash sotsiologik yondashuvni talab qiladi. Bu fanning shakllanishi, rivojlanish yoʻnalishlari va asosiy nazariy maktablari orqali zamonaviy ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish imkoniyati kengaymoqda.

Аннотация: Социология является одной из основных наук в понимании современного общества, его анализе и предложении научно обоснованных решений социальных проблем. Глубокое понимание таких вопросов, как изменения, происходящие в обществе в современную эпоху глобализации, сложные отношения между социальными группами, миграция, гендерное равенство, социальное неравенство, требует социологического подхода. Благодаря формированию, направлениям развития и основным теоретическим школам этой науки расширяются возможности анализа современных социальных процессов.

Kalit so'zlar: Jamiyat, shakllanish, fan, hayot, nazariya, axborot, faoliyat, tadqiqot, obyekt

Ключевые слова: Общество, формирование, наука, жизнь, теория, информация, деятельность, исследование, объект.

Sotsiologiya (lot. socius — jamiyat, yun. λόγος — bilim, ta'lim, tushuncha) — bir butun tizim hisoblangan jamiyat haqidagi va ayrim ijtimoiy tartibotlar, jarayonlar, ijtimoiy guruhlar, shaxs va jamiyat munosabatlari toʻgʻrisidagi fan. Sotsiologiya ilmiy uslublar yordamida hosil qilingan empirik (tajribaga asoslangan) ma'lumotlarga tayanib umumlashma xulosalar chiqara oladi. Shu tufayli jamiyatning rivojlanish modellarini ilmiy asoslab beradi.

Sotsiologiya inson jamiyati, ijtimoiy guruhlar va ularning oʻzaro aloqalari, tizimlari, qadriyatlari, institutlari haqida bilim beruvchi fandir. Uning rivojlanish jarayonida turli nazariy maktablar shakllandi. Har bir maktab jamiyatni tushuntirish uchun oʻziga xos metod va yondashuvlar taklif etdi. Sotsiologiya — bu jamiyatni, undagi guruh va institutlarni, ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarni oʻrganuvchi fan boʻlib, u zamonaviy davrda eng dolzarb ijtimoiy fanlar qatorida turadi. Sotsiologiya fanining maqsadi — ijtimoiy hayotdagi hodisalarni oʻrganish, ularning sabablari va oqibatlarini aniqlash, jamiyatda kechayotgan oʻzgarishlar mohiyatini tushunishdir. Bu jarayonda sotsiologiya tarix, siyosatshunoslik, iqtisod, antropologiya kabi fanlar bilan yaqin aloqada ishlaydi.

Sotsiologiya ilmiy fan sifatida XIX asrda shakllana boshladi. Fransuz faylasufi Ogyust Kont ushbu fan asoschisi sifatida e'tirof etiladi. U sotsiologiyani "ijtimoiy fizika" deb atagan va jamiyatni tabiatdagi obyektlar singari ilmiy metodlar bilan tahlil qilish zarurligini ta'kidlagan. U inson tafakkuri taraqqiyotini uch bosqichda tasniflaydi: teologik, metafizik va pozitiv. Pozitiv bosqichda inson tafakkuri aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

Keyinchalik G. Spenser sotsiologiyani biologik fanlar bilan bog‘lagan holda, jamiyatni “ijtimoiy organizm”ga qiyoslagan. Unga ko‘ra, jamiyat o‘ziga xos tuzilma va funksiyalarga ega bo‘lgan butunlik bo‘lib, uni tashkil etuvchi qismlar o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

Bugungi kunda sotsiologiya fani raqamli, ekologik, gender va postmodern muammolarni ham qamrab olgan holda tobora kengayib bormoqda. Bu jarayonda sotsiologiya tarix, siyosatshunoslik, iqtisod, antropologiya kabi fanlar bilan yaqin aloqada ishlaydi.

Sotsiologiya fani turli maktab va yo‘nalishlar orqali jamiyatga oid masalalarni tahlil qiladi. Har bir yo‘nalish o‘z yondashuvi bilan ajralib turadi.

Quyida sotsiologiyaning bir nechta yo‘nalishlari bilan tanishamiz:

1. ***Struktural funksionalizm -*** bu yondashuv jamiyatni o‘zaro bog‘langan qismlardan iborat tizim sifatida ko‘radi. Emil Dyurkgeym bu nazariyaning asoschisi bo‘lib, har bir ijtimoiy institutning jamiyat barqarorligini saqlashdagi o‘rnini aniqlagan. T. Parsonsa ko‘ra esa, ijtimoiy tizim doimiy integratsiyaga intiladi va har bir komponent o‘z funksiyasini bajaradi

2. ***Ziddiyat nazariyasi (Marksizm)***

Karl Marks jamiyat taraqqiyotini sinflar o‘rtasidagi kurash orqali tushuntirgan. Bu nazariyada ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy ekspluatatsiya va hukmronlik asosiy mavzu sifatida ko‘riladi. Marks kapitalistik jamiyatda mehnatkashlar (proletariat) o‘z mehnati evaziga yaratilgan boylikni egallay olmaydi, chunki uni burjuaziya o‘zlashtirib oladi.

“Jamiyatdagi har qanday siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizim hukmron sinf manfaatlarini ifodalaydi.”

3. ***Simvolik interaktsionizm***

Asoschilari: George Herbert Mead (1863–1931), Herbert Blumer (1900–1987) Bu yo‘nalish kishilar o‘rtasidagi kundalik muloqot, ramzlar va belgilar orqali jamiyat shakllanishini o‘rganadi. Mead fikricha, “shaxs” boshqalar bilan o‘zaro munosabatda rivojlanadi. Blumer esa insonlar narsalarga ular uchun nimani anglatishiga qarab munosabatda bo‘lishini ta’kidlaydi.

4. ***Fenomenologik sotsiologiya***

Asoschisi: Alfred Schutz (1899–1959) Fenomenologik yondashuv ijtimoiy haqiqatni odamlarning ichki tajribalari orqali tushunishga intiladi. Schutz oddiy kundalik voqealarni qanday idrok qilinishini tahlil qiladi.

Uning fikricha: “Jamiyat — bu ongli faoliyat natijasi. U subyektiv ma’nolarsiz mavjud bo‘lolmaydi.” (Schutz, 1967)

5. ***Postmodern sotsiologiya***

Vakillari: Jean Baudrillard, Zygmunt Bauman

Postmodernistlar zamonaviy jamiyatni “suqiluvchan”, “beqaror”, “axborotga to‘la, lekin ma’noga och bo‘lgan” deb ta’riflashadi. Baudrillardning “simulyakrum” tushunchasiga ko‘ra, biz haqiqatning emas, balki unga o‘xshash nusxalarning olamida yashayapmiz. Ya’ni: “Biz axborotga to‘lib-toshgan, lekin haqiqatni yo‘qotgan jamiyatda yashaymiz.” (Baudrillard, 1981)

6. ***Ekologik sotsiologiya***

Vakillari: Allan Schnaiberg, John Bellamy Foster

Bu yo‘nalish jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi murakkab aloqalarni o‘rganadi. U inson faoliyatining ekologik oqibatlarini sotsiologik kontekstda tushuntiradi. Fosterning ta’kidlashicha: “Ijtimoiy taraqqiyot ekologik resurslar hisobiga emas, ular bilan uyg‘unlikda bo‘lishi kerak.”

7. ***Simvolik interaktsionizm***

G. Mead va G. Blumer tomonidan ishlab chiqilgan bu yondashuv jamiyatni shaxslar o‘rtasidagi muloqotlar, belgilar va ramzlar orqali tushuntiradi. Har bir inson o‘z ijtimoiy rolini o‘zaro interaktsiya orqali shakllantiradi (Мид, 2009; Блюмер, 1986).

Sotsiologiya fanida har bir yo‘nalish jamiyatga o‘z uslubida yondashadi. Pozitivizm obyektiv qonuniyatlarni izlaydi, funksionalizm tizimli barqarorlikni tushuntiradi, ziddiyat nazariyasi esa ijtimoiy tengsizliklar va adolatsizlikni fosh qiladi. Simvolik interaktsionizm va fenomenologiya insonning kundalik tajribasiga e’tibor qaratsa, feministik va ekologik yo‘nalishlar jamiyatdagi chuqur strukturaviy muammolarni ko‘rsatib beradi. Ushbu yondashuvlarning barchasi jamiyatni to‘liqroq tushunishimizga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham sotsiologiya o‘z tarixiga ega. O‘rta Osiyolik mutafakkirlar (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy) asarlarida ham jamiyat, uning yashashi va rivojlanishi haqida muhim fikrlar bildirilgan. Fanga ma’lum bo’lishicha, sotsiologiyaning – gender, shahar, ta’lim, huquq, siyosat, oila, mehnat va boshqaruv kabi yana o‘nga yaqin yo’nalishlari mavjud.

Mamlakatimizda sotsiologiya ko‘pincha nazariy fan sifatida qaraladi. Amaliy sohalarda jumladan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, oilaviy munosabatlar, migratsiya, ishsizlik sotsiologik tahlillarga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Bu esa mavjud muammolarni to‘liq anglash va ilmiy asosda yechimini topishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari amaliy sotsiologiyani rivojlantirishi lozim. Jamiyatdagi muammolarni o‘rganish uchun doimiy monitoring tizimlari yo‘lga qo‘yilishi, tadqiqot natijalari esa davlat siyosati va ijtimoiy dasturlarga integratsiyalashuvi zarur. Bundan tashqari, O‘zbekistonda sotsiologik tadqiqotlar soni kam, mavjudlari esa ko‘pincha yuzaki va statistik ma’lumot yig‘ish bilan cheklanadi. Bu esa chuqur tahlil va nazariy-empirik asoslangan xulosalarga olib kelmaydi. Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, sotsiologik tadqiqotlar grantlari soni ko‘paytirilishi, xususan yosh tadqiqotchilar uchun moliyaviy va metodologik ko‘mak berilishi lozim. Shuningdek, davlat muassasalari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari sotsiologlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi kerak. Bu esa o‘z navbatida, ommaviy axborot vositalarida sotsiologik izoh va tahlillar keng yoritilishi orqali bu soha ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

References:
Используемая литература:
Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kont, O. (1999). Kurs pozitivnoy filosofii. Moskva: Kanon+.
2. Spenser, G. (1998). Osnovi sotsiologii. SPb: Lan.
3. Dyurkgeym, E. (2003). O razdelenii obshestvennogo truda. Moskva: Kanon+.
4. Parsons, T. (2002). Sotsialnie sistemi. Moskva: Akademicheskiy proyekt.
5. Marks, K., Engels, F. (1987). Nemetskaya ideologiya. Moskva: Politizdat.
6. Mid, Dj. G. (2009). Razum, Ya i obshestvo. SPb: Lan.
7. Blyumer, G. (1986). Simvolicheskiy interaksionizm. Moskva: MGU.
8. Shyus, A. (2004). Izbrannoye. Moskva: Logos.
9. Bauman, Z. (2005). Liquid Modernity. Cambridge: Polity Press.
10. Baudrillard, J. (1994). Simulacra and Simulation. Michigan: University Press.
11. Giddens, A. (2009). Sotsiologiya. Moskva: Editorial URSS.
12. Ritzer, G. (2011). Sociological Theory. 8th ed. McGraw-Hill.
13. Best, S., & Kellner, D. (1991). Postmodern Theory. New York: Guilford Press.